

**Ulug‘murodov Elyor Saydulloyevich, SamDCHTI,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

UDK:182.2

eulugmurodov@mail.ru

tel:+99899 595-56-16

Taqrizchi M.N.Melikova

Falsafa fanlari doktori (DSc)

ISLOM DINIDA BORLIQ SUBSTANSIYASI MUAMMOSI

Annotatsiya: Mazkur maqolada islom ta’limotida borliqni vujudga kelishi, dastlabki substansiyasi va mohiyati, borliqning diniy-falsafiy asoslari va undan kelib chiqadigan ixtiyor erkinligi, tasodifiylik va zaruriylik, Xudoning sifatleri kabi masalalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: din, islom, teologiya, borliq, ixtiyor erkinligi, tasodifiylik, zaruriylik, Xudoning sifatleri, mo‘taziliylar, jabariylar.

ПРОБЛЕМА СУБСТАНЦИЯ СУЩЕСТВОВАНИЯ В ИСЛАМЕ

Аннотация: В данной статье в исламском учении анализируются такие вопросы, как творение, новая субстанция и возникновение из нее, религиозно-философские основы существования и это свободная воля, случайность и необходимость, атрибуты Бога.

Ключевые слова: религия, ислам, теология, существование, свобода воли, легкость, необходимость атрибутов Бога, мутазилиты, джабарисы.

THE PROBLEM OF THE SUBSTANCE OF EXISTENCE IN ISLAM

Annotation: This article analyzes issues such as the creation of existence, its initial substance and essence, the religious-philosophical foundations of existence and the resulting free will, randomness and necessity, and the attributes of God in Islamic teachings.

Key words: religion, Islam, theology, existence, free will, randomness, necessity, attributes of God, Mu'tazilites, Jabaris.

Kirish. Borliq, uning yaralishi, yaralish ibtidosi, yashash tarzi, shakl-shamoyili, ichki mazmuni, mangulikka doxilligi yoki o'tkinchiligi kabi savollar ibtidoiy davrlardan to hozirgi kungacha fanlarning otasi bo'lgan falsafa fanining, uning asosiy yo'nalishi va mavzusi bo'lgan – ontologiyaning bosh muammosi bo'lib kelmoqda. E'tiborli jihati, ontologik muammolarning ko'plab savollari, nazarimizda, eng taraqqiy etgan aniq fanlar sohasida katta ijobiy natijalarga erishganligiga qaramay, hanuz ochiqlicha qolmoqda. Bular toifasiga dunyoviy, ya'ni yer ilmida (geologiya) – yerning yaralishi, tuzilishi, uning tarkibini (klassik falsafadagi to'rt unsur nazariyasidan tortib to hozirgacha) tashkil etgan unsurlar, ularning xususiyatlari, umuman falsafada koinot (kosmos)ni, undagi sayyoralarning paydo bo'lishi bilan bog'liq savollarga va hokazolarni kiritish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jahon falsafasida islom teologiyasi, uning ontologiya(borliq) haqidagi qarashlarini o'rganish barcha davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, bugungi kun ilm-fani tarqqiyoti jarayonida ularni o'rganish zarurati ortib bormoqda. G'arblik sharqshunos, islomshunos va faylasuf olimlardan H. Suter, G. Sarton, R. Donald, M. Ulmann, C. Brockelmann, A. Jourdain, E. Renan, S. Munk, T. J. De Boer, O'leary De Lacy, Cruz Hernandez, W. M. Watt, H. Corbin, F. Rouzentel, Adam Mets, T. J. Uinter, Gustav fon Gryunebaum, A. SHimmel, YA. Rishard, Dj. S. Trimingem, N. Hir, U. Rudolf, R. Nallino, M. Xotamiy [1] va boshqalarning tadqiqotlarida mazkur masalalarga keng o'rin berilgan. SHuningdek, arab dunyosida Imom Ahmad ibn Qudoma Maqsudiy, SHamsiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qaymoz ibn Abdulloh Zahabiy, Honiy al-Haj, Doktor Rog'ib Sarjoni, Abulhasan Movardiy, Mahmud As'ad Jo'shon, Muhammad Zako Ko'nrapa, Abdurahmon Raf'at Posho, SHayx Muhammad Mutavvali SHa'roviy, Imom Zarnujiy, Jihod At-Turboniy, Maqsudiy [2] larning to'plamlarini ham muhim manba sifatida aytish mumkin.

O'zbekistonda islom teologiyasining ontologik va gnoseologik asoslari I. R. Nasirov, B. Vaxobova, M. Boltaevlar tomonidan, islom ta'limotining gnoseologik, antropologik, tasavvufiy xususiyatlari M. Hasaniy, B. Namozov, K. Rahimov, Z. Narziev, M. Mamatov, Q. Ro'zmatzoda, N. Hasanov, Z. Ishoqova, I. Haqqulov, H. Homidiy, A. Abdullaev, Yo'ldosh Eshbek, K. Rahimov tadqiqotlarida tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Moddiy borliq ibtidosi, mavjudligi asosi sifatida substansiya muammosi turadi. Substansiya termini va tushunchasi hozirgacha falsafaga oid manbalarda quyidagicha tavsiflangan. Substansiya - (lot. substantia — mohiyat) - narsa va hodisalarning mohiyatini, asosini ifodalovchi tushuncha. Odatda, materiya, modda so'zining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Substansiya falsafada xilma-xil olamning, ob'ektiv reallikning, tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri tarixini, inson bilimlarining natijalarini ham o'ziga qamrab oluvchi konkretlikning nazariy in'ikosi, bilish nazariyasining asosiy tushunchasi sifatida talqin etiladi. Bunday universal mohiyat muayyan narsa, hodisalar va ularning o'zaro aloqadorliklari orqali namoyon bo'ladi. YUnon faylasuflari substansiya deb narsalarning doimiy, tub va o'zgarmas xususiyatini, asl mohiyatini anglashgan. Keyinchalik sxolastlar butun mavjudotning asl mohiyatini tashkil etuvchi substansiya - Xudodir degan g'oyani ilgari surdilar.

Qadimgi Eron va Turon faylasuflari inson borlig'i olam borlig'i bilan bevosita aloqador, inson borlig'ida olam borlig'i o'z ifodasini topadi, olam borlig'i esa to'rt asosiy substansiyadan: tuproq, suv, olov, havodan tashkil topgan, olam borlig'ining murakkab shakllaridan biri bo'lgan inson tabiati ham, shubhasiz, o'sha to'rt unsur bilan bog'liq bo'ladi, deb ishontirishga harakat qildilar.

Islom ta'limotida ontologik qarashlarining asosi ilohiy xususiyatiga ega, uning asosiy manbasi Qur'oni Karim bo'lib, uning ontologik talqini juda ko'p o'rinlarda Qur'on oyatlari asos qilinadi. Masalan: Baqara surasining 117 oyatidagi

“U (Xudo) eru osmonlarni paydo qilguchidir. Biror ishni hukm qilsa, unga faqatgina “Bo‘l”, deydi xolos. Bas, u ish bo‘ladi” **[3]** degan oyati kalimaga asoslanadi.

Islom teologiyasida ontologik substansiya masalalari avvalo, xudoni sifatlarini tushunishda namoyon bo‘ladi. Xususan, Ibn Arabiy “borliqning yagona boshlang‘ich asosi” va inson “ichki dunyosi “yorishishi” orqali bilish” haqidagi ta‘limotlarni rivojlantirgan. O‘zining borliqning birligi (vahdat al-vujud) haqidagi ta‘limotida “ilohiy bilimda barcha moddiy narsalarning g‘oyalari mavjud, ular undan kelib chiqadi va pirovardida eyuf qaytib boradi”, deb ta‘kidlagan.

Ibn Arabiy so‘fiylarga xos mistikaviy tajribani “Borliqning birligi va yagonaligi” (vahdad al-vujud) falsafiy tizimi ko‘rinishida asoslab bergan. Bu ta‘limotga ko‘ra, moddiy dunyo yaratilishining sababi olamdan tashqaridagi, mustaqil (ixtiyori o‘zida) bo‘lgan va Zot, Haq, Ahad deb ataluvchi Mutlaqlikning uning o‘zi yaratgan moddiy olam narsalarida o‘z aksini ko‘rish va o‘zini o‘zi bilishga bo‘lgan harakatida (intilishida) yotadi. Bu intilish cheksiz va mavhum Mutlaqlikni olam (Mutlaqlik va moddiy olam orasidagi mohiyatlar olami - barzah) mohiyatlari doirasida o‘zini o‘zi cheklash (taqayyud) va konkretlashish (ta‘ayyun) vositasida namoyon (tajalli) bo‘lishga undaydi. Mutlaqlikning namoyon bo‘lish jarayoni o‘z holicha emas, balki bu Mutlaqlikda azaldan mavjud bo‘lgan narsalar obrazlari (a‘yon sobita) yoki imkonlar (imkonat) bilan hamjihatlikda sodir bo‘ladi. Moddiy dunyoning narsa va hodisalarida ro‘yobga chiqqan (reallashgan, amalga oshgan) Mutlaqlik o‘zining mustaqilligini (ixtiyori o‘zidaligini) muayyan darajada yo‘qotadi, chunki moddiy dunyo endi uning borlig‘ining zaruriy ko‘rinishi bo‘lib qoldi. O‘zining mantiqiy nisbatiga (ma‘lux) ega bo‘lgan Mutlaqlik xudoga (ilohga) aylanadi. Uning tashqi va konkret ko‘rinishga ega ismlari va sifatleri bor. Bularning natijasi o‘laroq u sig‘inish (ibodat) va hukm yuritish ob‘ektiga aylandi. SHu bilan bir vaqtda u yagona reallik bo‘lib qoladi, moddiy olam esa – o‘z manbasiga munosabati bo‘lmaganda ma‘nosini yo‘qotuvchi uning “in‘ikosi” (shabah), xayoldir**[4]**. Mutlaqlikning koinotda namoyon bo‘lishi dialektikasini inson xayolining (tafakkuri, shuurining), chetdan turib, o‘zini o‘zi mufassal

tasavvur qilishga urinishi va bu tasavvurni o'zidan tashqariga proeksiya qilishiga o'xshatish mumkin.

Tahlil va natijalar. Borliq substansiyasi islomda vujud tushunchasi sifatida ifodalangan. Islomda vujudi vojib, vujudi mumkin, vujudi mavjud tushunchalari va ularni izohlashda vahdat ul-vujud, vahdat ul-mavjud kabi ta'limotlar yaratilgan.

Islom falsafasida ontologiya ko'proq ilohiy borliqning mohiyatini, xudoning mohiyatini aks ettiruvchi ta'limot tarzida, sharq panteistik falsafasida esa *vahdatu mavjud* va *vahdatu vujud* ko'rinishidagi ta'limotlar shaklida vujudga kelgan.

Vujudi vojib va vujudi mumkin tushunchalari Farobiy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Ibn Rushd kabi faylasuflar tomonidan tahlil etilgan bo'lsa, vahdat ul-vujud, vahdat ul-mavjud ta'limoti tasavvufda borliq masalalarini izohlashda qo'llaniladi. Tasavvufda o'ziga xos fikriy qo'zg'alish bo'lgan "Vahdat ul-vujud"- vujud birligi ta'limoti shayx Kabir Muhyiddin ibn Arabiy (1165-1240) qarashlari asosida shakllangan. Buyuk mutafakkir Sayfiddin Boxarziyning ma'naviy merosining tadqiqoti u kishida ham borliqqa oid g'oyalar mavjudligini ko'rsatadi.

Vahdat ul-vujud lug'aviy ma'nosi arabcha-jismoniy borliq - Sharq mamlakatlari, Markaziy Osiyo, Hindiston xalqlari falsafiy qarashlarida keng tarqalgan oqim[5]. Vahdat ul-vujud vujudning birligi ma'nosini anglatib, Allohdan boshqa borliq yo'qligini bilish shuuriga sohib bo'lishdir. Vahdati vujud maslagiga ko'ra, hamma narsa toq vujud bo'lmish Allohning turli-tuman tajalliylari, zuhurlari, taxayyullari va ko'rinishlaridan boshqa narsa emasdir.

Vahdat ul-vujud nazariyasiga ko'ra, olam Mutlaq Zoti mukarram – Haq taoloning o'z husnu jamoli, qudrat va sifatlarini namoyon etish istagidan paydo bo'lgan. Ya'ni, Haq taolo o'z-o'zini tanish uchun Borliqni yaratdi. Borliq go'yo ko'zgu bo'lib, Haq jamoli, ilmu hikmati unda aks etadi, jilolanadi. SHundan ushbu ta'limotning muhim qismi bo'lgan tajalliy g'oyasi ham kelib chiqadi. Mutlaq Ruh – olamning joni, olamdagi barcha o'zgarish, qonuniyatlar, ziddiyat va kelishuvlar, moddaning harakati, jismlarning o'zaro aloqa-munosabati, muvozanat va nizomlar, tartib-qoidalar, o'sish-ulg'ayish va emirilish – hamma-hammasida Haq taoloning

ishtiroki, amri bor. Borliqning eng kichik zarrasidan koinotgacha jami ashyolar Mutlaq Ruh nazorati, boshqaruvi ostidadir. SHu asosda butun olam yagona Ruhi Mutlaqning ishtiroki bilan mavjud, borliq esa Ruhi Mutlaqqa bog‘liq holdagina mavjud. Demak, haqiqiy va abadiy vujud Uning O‘zi, moddiy olam esa – abadiy emas, u foniy yoki Mutlaq Ruhning xayoli, xolos.

"Vahdat ul-vujud" istilohi "borliqning birligi" ma’nosini anglatadi. Ammo uni "borliqning birlashuvi" yoki "barcha narsa va ashyolarning bitta vujud atrofida jipslashishi" ma’nosida emas, balki "borliq (vujud)ning yagonaligi" ma’nosida anglash lozim. Shundagina bu tushuncha G‘arb falsafasidagi panteizmni emas, Sharqdagi islom panteistik ta’limoti – vahdat ul-vujudning mazmun mohiyatni ifodalaydigan bo‘ladi. Vahdat ul-vujud g‘oyasining ibtidoiy ko‘rinishlari ilk oriflar – Boyazid Bistomiy va Mansur Halloj qarashalarida o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, salkam to‘rt yuz yil o‘tgandan so‘ng mukammal va mustaqil nazariya (yoki ta’limot) sifatida tan olindi.

“Vahdat ul-vujud” ta’limotiga ko‘ra borliqni yaratilishining sababi qandaydir Olam ustida turadigan va o‘zi mustaqil bo‘lgan Mutloqning(xudo) harakati, astilizining mahsuli, boshqacha aytganda o‘zini-o‘zi anglash va o‘zini-o‘zi bilish, Mobiyat(al-axadiya), yaratilgan borliqni(al-xalq) birligi hisoblanadi. Bunday tahlil cheksiz, bepayon Mutlaq(ollox)likka intilish va mavhum tasavvurni uyg‘otadi, olamni birligi, “Ollohni namoyon bo‘lishi(tajjali)” tarzida talqin etiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda borliq substansiyasini asoslovchi Vahdat ul-vujud falsafasi murakkab, shuningdek, bahs-munozaralarga boy bo‘lgan ta’limot. Ushbu falsafiy-ta’limotlar tobora moddiylashib, inon-ixtiyorini nafs qutqusiga topshirayotgan, ongsizlik, tafakkursizlik, behayolik, buzg‘unchilik, haromxo‘rlik va ma’naviyatsizlik botqog‘iga botib borayotgan XXI asr insonlarini bashariyat kelajagi haqida kengroq, chuqurroq tafakkur qilishga da’vat etadi, butun Borliq va undagi mavjud narsalar aslida yagona bir Borliq ekanligi, olamdagi barcha mavjudotlar, mavjudliklar, hodisalar, holatlar, qonuniyatlar, ashyolar aslida o‘z-o‘zidan vujudga kelmasligi va butunlay ayri holda mavjud bo‘lolmasligi, balki

ular o'rtasida mustahkam, kuchli, uzviy, hech qachon va hech narsa bilan ajratib bo'lmaydigan darajadagi aloqadorlik borligini uqtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ilm a-falak va tarixi ind al-arab fi-l-qurun al-vusta. Ruma.1911. Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. –Toshkent: Minhoj, 2003.
2. Imom Ahmad ibn Qudoma Maqsudiy. Minhajul qosidin muxtasari: Saodat izlovchilarga qo'llanma. Tarj. Abdulhamid Muhammad Tursun. Mas'ul muharrir SHayx Abdulaziz Mansur. –Toshkent: “Movarounnahr” , 2014. –B. 468.
3. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / tarjima va tafsir muallifi: SHayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: “Munir” nashriyoti, 2021. – B.42.
4. SHayx Muhammad Sodik Muhammad YUsuf. Hidoyat imomi. –Toshkent: “Hilol-Nashr”, 2019. –B. 4.
5. J.Ya.Yaxshilikov, N.E.Muhammadiyev “Falsafa” , Samarqand. 2021.B.-45
6. Islom ma'rifati va hozirgi zamon. Nashrga tayyorlovchi Abdullaev A. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2017. –B. 13.